

QUSHLARNING MAVSUMIY MIGRATSIYASI

Andijon Davlat Pedagogika instituti

Biologiya yo‘nalishi talabasi

Xo‘jamberdiyeva Zebiniso Sobitjon qizi

Andijon Davlat Pedagogika instituti

Biologiya o‘qituvchisi

Yo‘ldashev Abduvali Alisher o‘g‘li

xo‘jamberdiyevmuhammadqodir@gmail.com

Annotatsiya/Ushbu maqolada qushlarning mavsumiy migratsiyasi, sutka siklliligi, qushlarning yashash joyining mavsumiy o‘zgarishi, qushlarning qishlov joylari haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar/ Migratsiya, uchib ketuvchi qushlar, ko‘chib yuruvchi qushlar, o‘troq qushlar, uya konservatizm.

Qushlar - umurtqali hayvonlar sinfi. Ayrim morfologik belgilar (orqa oyoqlardagi muguz tangachalar, muguz tumshuq va boshqalar) hamda fiziologik xususiyatlari (tuxum qo‘yishi)ga ko‘ra qushlar sudralib yuruvchilarga o‘xshaydi, lekin tanasi pat bilan qoplanganligi tufayli ulardan farq qiladi. Patlar qushlar tanasida issiqlikni saqlaydi; uchishda havo qarshiligini kamaytirib, havoda ko‘tarish yuzasini hosil qiladi (qanot, dum).

Qushlar yashash joyining mavsumiy o‘zgarishiga qarab 3 ta guruhga bo‘linadi: I. O‘troq qushlar. 2. Ko‘chib yuruvchi qushlar. 3. Uchib ketuvchi qushlar.

1. O‘troq qushlar - bir joyning o‘zida yil bo‘yi yashab qishlab qoladigon qushlarga aytiladi. Qizilishtonlar, qirg‘ovullar, kakliklar, musichalar, maynalar, chumchuqlar, so‘fito‘rg‘aylar, ko‘k kaptarlar, chittaklar va qursimonlar, ya‘ni karqurlar, oq kuropatka, chil va boshqa qushlar kiradi. Ular qishda o‘zi tug‘ulib o‘sgan hududini o‘zgartirmaydi, faqat oziq qidirib, bir necha kilometr masofaga uchib boradi. O‘troq qushlar yoz ohirlarida qishga ozuqa g‘amlaydi.

2. Ko‘chib yuruvchi qushlar turlari qishda ancha keng tarqalib ketadi va Janubiy tomondagi tumanlarga bir necha kilometrgacha masofaga uchib boradi, lekin uzi yashayotgan tabiiy xududini tashlab ketmaydi. Ko‘pincha ularning yozda va qishda yashaydigan hududlari qisman bir-biriga to‘g‘ri keladi. Bunday hodisa, ko‘pgina

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 11. November 2024

dexqonchumchuqlarda, go'ngqarg'alarda, olaqarg'alarda, zog'chalarda, qorayaloqlarda ko'riladi. Bu qushlarning ma'lum bir doimiy qishlash joyi bo'lmaydi. 3. Uchib ketuvchi qushlarga shimoliy va o'rta, mintaqalarda tarqalgan ko'plab qushlar kiradi. Ularning uya qurib, jo'ja ochadigan hududi bilan qishlaydigan hududi bir-biridan ancha uzoq bo'ladi, ya'ni qish kelishidan oldin minglab kilometr uzoqda joylashgan issiq o'lkalarga uchib ketadi, bahor kelishi bilan o'zlari uya qurib, jo'ja ochadigan joylariga yana qaytib keladi. Bu qushlarga ko'pchilik o'rdaklar, g'ozlar, oqqushlar, bulbullar, qaldirg'ochlar, laylaklar, turnalar, zarg'aldoklar, jarqaldirg'ochlar kiradi.

Qushlar ko'pincha bir turning o'zida yashash joyiga qarab mavsumiy o'zgarishlar turli darajada namoyon bo'ladi. Masalan: olaqarg'a janubiy tumanlarda tipik o'troq qush bo'lsa, markaziy va g'arbiy hududlarda ko'chib yuruvchi, shimoliy hududlarda esa haqiqiy uchib ketuvchi qushlar hisoblanadi. Iqlim va oziqlanish sharoiti ham qushlar hayotidagi mavsumiy o'zgarishlarga ta'sir ko'rsatadi. Ko'pgina o'rdaklar qishda suv muzlamagan va qisman muzlagan yerlarda mintaqalarda qishlab qoladi. Iqlim qancha kontinental bo'lsa, uchib ketuvchi qushlar ham shuncha ko'p bo'ladi.

Uchib ketuvchi qushlar yoki migratsiya qiluvchi qushlarning soni shimolga borgan sari oshib boradi. Bu qushlar bir yilda 2 marta, ya'ni kuzda qishlash joyiga qarab, bahorda esa uya qurgan yoki tug'ilgan joyiga qarab migratsiya qiladi. Kuzgi migratsiya vaqtida qushlar o'rtacha tezlikda uchadi, vaqti-vaqti bilan dam oladi. Qushlarning migratsiya yo'lli har xil uzoqlikda joylashgan. Afrikada qishlagan qaldirg'ochlarning yo'li 9-10 ming km. Barents dengizida yashaydigan qutb krachkasi qishlash uchun 16-18 ming km uzoqda joylashgan Afrika qit'asiga uchib ketadi. Mayda chumchuqsimonlar migratsiya vaqtida bir sutkada 50-100 km tezlikda uchadi. Samolyot va rodar yordamida kuzatish shuni ko'rsatadiki, ko'pchilik qushlarning migratsiyasi 450-750 m balandlikda bo'ladi. Baland tog'larda qushlar xatto dengiz sathidan 6-9 km balandlikda uchib o'tganligi kuzatilgan. Migratsiya qiluvchi qushlar migratsiyadan oldin juda intensiv oziqlanadi va anchagina yog' zaxirasi to'playdi. Yog' parchalanganda ko'p miqdorda energiya ajraladi. Migratsiyadan oldin yog' zaxirasi past qushlarda yog' tana og'irligining 30-35% ini tashkil etadi. Bu jarayon organizmning yillik fiziologik ritmi, yashash sharoitining mavsumiy o'zgarishi, kunning yorug'lik soati o'zgarishi, oziq bazasining va temperaturaning o'zgarishiga bog'liq.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 11. November 2024

Migratsiya vaqtida qushlarning orientatsiyasi, ya'ni adashmasdan kerakli umumiy yo'nalishni aniqlaydigan narsa nima, degan savolga to'liq javob topilmagan. Uchib ketuvchi qushlarda migratsiya uchun kerakli umumiy yo'nalishni aniqlaydigan tug'ma migratsion instinkt bo'ladi. Eksperimental tekshirishlar va dala kuzatishlaridan ma'lumki, migratsiya qiluvchi qushlar astronavigatsiya qobiliyatiga ega, ya'ni migratsiya vaqtida quyosh, oy va yulduzlarning holatiga qarab kerakli yo'nalishni tanlaydi. Yomg'ir yog'anda, havoda bulut bo'lganda yoki planetariy tajribalarida osmon yulduzlarining tabiiy xolati o'zgartirilganda migratsiya qiluvchi qushlarning orientatsiyasi keskin yomonlashadi. Qush tomonidan migratsiya vaqtida tanlangan umumiy yo'nalish ko'rish organi - ko'z yordamida bajariladi. Chunki migratsiya paytida qushlar landshaftlar, daryo oqimi, o'rmonlar, dengiz qirg'oqlari bo'ylab uchadi. Masalan: suv qushlari ko'proq daryo havzalari bo'ylab uchadi. Quruqlikda yashaydigan qushlar esa, odatda ancha keng masofa bo'ylab uchadi. Baland va katta-katta tog'larni qushlar ko'pincha aylanib o'tadi, qushlarning qishlash joylari to'g'risida gapirilganda ko'pgina chumchuqsimonlar, o'rmon loyo'raklari, yakan- tovuqlar yumshoq iqlimli Angliyada qishlaydi. Buning aksicha, Sibirda in quruvchi qushlar qishlash uchun Markaziy Osiyodagi tog' va sahrolarni aylanib o'tib, janubiy-sharq tomonga uchib boradi va nixoyat Sibir tundra'larida uya quradigan qoratomoq gagalar avval shimolga, ya'ni muz okeaniga uchib boradi, so'ngra u yerdan sohil bo'ylab g'arb tomonga va janubi-g'arbgacha uchib keladi.

Qushlarning tabiat va inson hayotidagi ahamiyati xilma-xil bo'lib, [o'simliklarni](#) changlantirish, ular urug'larini tarqatish, zararkunanda [hasharotlar](#) va [kemiruvchilarni](#) qirish (ular sonini boshqarish)dan iborat. Qushlarning bir qancha turlari xonakilashtirilgan. Qushlarning tabiatdagi estetik ahamiyati ayniqsa katta: ularning sayrashi bog' va xiyobonlarni jonlantiradi; insonda zavqlanish hissini uyg'otadi. O'zbekiston Respublikasi 1995-yilda „Biologik xilma-xillik to'g'risida“gi, 1997-yilda „Yo'q bo'lib ketish xavfi ostidagi yovvoyi fauna va flora turlarining xalqaro savdosi to'g'risida“gi, 1998-yilda „Ko'chib yuruvchi hayvonlar turlarini muhofaza qilish to'g'risida“gi, 2001-yilda „Xalqaro ahamiyatga ega, ayniqsa, suvda suzuvchi qushlarning yashash joylari bo'lgan suv botqoqlik joylar to'g'risida“gi konvensiyalarga qo'shildi. „Ingichka tumshuqli balchiqchi, Sibir turnasi ([oq turna](#)), [Afrika - Yevrosiyoning](#) suvda suzuvchi ko'chmanchi qushlarini muhofaza qilish tadbirlari yuzasidagi hamfikrlik memorandum“ kabi xalqaro bitimlar O'zbekiston Respublikasi tomonidan imzolangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- Фауна мира. Птицим. М.,1991;
- O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobi. T., 2003;
- O‘zbekistonning umurtqali hayvonlari aniqlagichi, J.L.Laxanov,T., 1988;
- Zoologiya. (Xordalilar 2-qism) S.Dadayev, Q.Saparov. T., 2011

Foydalanilgan saytlar:

- <https://uz.wikipedia.org/wiki/Qushlar>



**Research Science and
Innovation House**